

# O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma'mun akademiyasi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
FANLAR AKADEMIYASI



**Xiva**  
**4-may 2023-yil**

**“Beruniy va Ibn Sino – Ikkinchi ming yillikning taqdirini o‘zgartirgan daholar:  
Ma’mun akademiyasining jahon fani taraqqiyotida tutgan o‘rni” mavzusidagi**

## **XALQARO ILMIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

**Xiva  
4-may 2023-yil**

Mazkur anjuman O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-338-sonli Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Xorazm Ma‘mun akademiyasida o‘tkazilmoqda. Anjuman ilmiy to‘plamida tadqiqotchi olimlar, talabalar, mazkur allomalar hayoti, faoliyati, ilmiy merosiga qiziquvchilarning ilmiy maqolalari jamlangan

**Mas‘ul muharrir:**  
**R.B.Mahmudov – filologiya fanlari doktori, dotsent**

Xalqaro konerensiya to‘plami Xorazm Ma‘mun akademiyasi Ilmiy kengashining 2023-yil 28-apreldagi 4-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan.

**To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas‘uldirlar.**

**© Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2023.**

YUNESKO bosh assambleyasining 32-sessiyasida Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000-yilgini nishonlash bo'yicha Qaror qabul qilindi. Bu qaror ajdodlarimizning jahon faniga qo'shgan katta hissasi va obro'-e'tiboridan dalolat beradi. 2004-yil 9-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000-yilgini nishonlash to'g'risida" gi Qarori qabul qilindi, keng nishonlandi.

O'zbekiston o'zining tarixiy boy ilmiy va madaniy meroslari bilan jahonda doimo yetakchi o'rinda turgan. Jumladan, yurtimizda qadimdan astronomiya fani ancha rivoj topgan tabiiy fanlardandir. Yurtdoshlarimizning kashfiyotlari esa hozirgi kunda jahon fanining asl durdonalari hisoblanadi.

"Islom olamining eng mashhur faylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri" degan unvonga sazovor bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlarda alohida g'urur va ehtirom tuyg'ularini uyg'otadi. Ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan bu ulug' zot o'z umri davomida 450 dan ortiq asar yaratdi. Ularning aksariyati avvalo tibbiyot va falsafa, shuningdek, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohaslariga bag'ishlangan. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Frensis Bekon va boshqa ko'plab olimlar avlodi uning asarlarini o'qib, hayratga tushganlar.

Biz doim g'urur va iftixor bilan e'tirof etamizki, tibbiyot tarixida eng mashhur bo'lgan, "Tib qonunlari" deb atalgan o'zining bebaho fundamental asari bilan Ibn Sino keyingi bir necha yuz yillar uchun tibbiyot fanlari taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini oldindan belgilab berdi, hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan amaliy tibbiyot va farmakologiya sohaslarining eng muhim usullariga asos soldi. Bejiz emaski, bu kitob Yevropada XV asrda chop etilgan dastlabki kitoblardan biri bo'lgan va Yevropaning yetakchi universitetlarida qariyb 500-yil davomida tibbiyot ilmi ayni shu asar asosida o'qitib kelingan.

Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (967-997) davrida Buxoro tomoniga ko'chib, Hurmaysan qishlog'iga moliya amaldori etib tayinlanadi. U Afshona qishlog'ida Sitora ismli qizga uylanib ikki o'g'il farzand ko'radi. O'g'illarining kattasi Husayn (Ibn Sino), kenjasi Mahmud edi. Husayn 5 yoshga kirgach, Ibn Sinolar oilasi poytaxt Buxoroga ko'chib keladi va uni o'qishga beradilar. 10 yoshga yetaretmas Ibn Sino Qur'on va adab darslarini to'la o'zlashtiradi. Ayni vaqtda u hisob va al-jabr bilan ham shug'ullanadi, arab tili va adabiyotini mukammal egallaydi. Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki ustozlari Abu Abdulloh Notiliy edi. U el orasida hakim va faylasuf sifatida mashhur bo'lgani uchun otasi Ibn Sinoni unga shogirdlikka berdi. Notiliyning qo'lida olim mantiq, handasa va falakiyotni o'rgandi va ba'zi falsafiy masalalarda ustozidan ham o'zib ketdi. Ibn Sinoning aql-zakovatini ko'rgan ustozlari otasiga uni ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullantirmaslikni tayinlaydi. Shundan so'ng, ota o'g'ilga ilm o'rganish va bilimlarini chuqurlashtirish uchun barcha sharoitlarni yaratib berdi. Abu Ali tinmay mutolaa qilib, turli ilm sohaslarini o'zlashtirishga kirishdi. U musiqa, optika, kimyo, fiqh kabi fanlarni o'qidi, xususan, tabobatni sevib o'rgandi va bu ilmda tez kamol topa boshladi.

Ibn Sinoning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida buxorolik boshqa bir tabib Abu Mansur alhasan ibn Nuh al-Qumriyning xizmati katta bo'ldi. Ibn Sino undan tabobat ilmini olib, bu ilmning ko'p sirlarini o'rgangan. Qumriy bu davrda ancha keksayib qolgan bo'lib, 999-yilda vafot etdi.

## **BUYUK AJDODLARIMIZ TA'LIMOTIDA O'QITUVCHI BILAN O'QUVCHILAR O'ZARO MUNOSABATLARI MUAMMOSI**

**Raxmanova Dilfuza Uchkunovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

([dilfuza.raxmanova.89@mail.ru](mailto:dilfuza.raxmanova.89@mail.ru))

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniyning ta'lim va tarbiya haqidagi fikrlari so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, "Tib qonunlari", o'qitish, o'qituvchi.

**Kirish (Introduction).** Barkamol avlodni tarbiyalashda o'zbek xalqining ta'lim - tarbiyaga oid tarixiy tajribasini o'rganish va uni yangi zamon kishisini shakllantirish va tarbiyalashda hayotga amaliy tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ajdodlarimiz ta'limotlarida bilimni sevish va ardoqlash, olim-u fuzalolarni, ustozlarni hurmat qilish, ustoz-shogird munosabatlarida muomala madaniyati, insoniy fazilatlarini e'zozlash haqidagi ilmiy g'oyalari o'zbek xalqining og'zaki ijodi, eposining uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy me'rosdir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Tarixiy manba hisoblanmish "Avesto" hozirgi o'zbek millati, uning etnik ongi va o'ziga xosligining ildizlarini vujudga keltirgan davr (VII asrgacha) uchun qoidalar va qonunlarning to'plami hisoblangan.

Qur'oni karim va hadisi shariflar asosidagi ta'lim-tarbiya va yosh avlodni yuksak fazilatli qilib o'stirish bo'yicha ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar ma'naviyatimiz durdonalari – Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari", Jaloliddin Davoniyning "Axloqi Jaloliy", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-Qulub", Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", Xusayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoni" kabi asarlarida atroflicha bayon qilingan. Shu bilan birga bu asarlarda o'quv-tarbiya jarayonining asosi hisoblangan o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabatlarining pedagogik-psixologik xususiyatlari ham o'z ifodasini topgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** "Amerikalik fan tarixchisi Sarton milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, XI asrni "Beruniy asri" deb ta'riflaydi".

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'z ilmiy-falsafiy ta'limotlarida tarbiya masalasiga alohida e'tibor berib, tarbiyada atrof-muhit va jamoaning ta'siri kuchliligini, bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini to'g'ri tashkil qilishning muhimligini e'tirof etadi. U ta'limning eng zarur tarkibiy qismlari deb quyidagilarni ifodalagan: 1) aqliy tarbiya; 2) axloqiy tarbiya; 3) estetik tarbiya; 4) jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasi; 5) do'stlik tarbiyasi va baynalminal tarbiya.

Beruniyning fikricha, yoshlarni o'qitish uchun o'qituvchi tanlash birinchi va asosiy ish deb hisoblanib, bolalarni yoshligidanoq, aniqrog'i 5-6 yoshdan o'qitish lozim. Buning uchun o'qituvchining xushmuomala, rostgo'y, o'z fanini yaxshi biladigan, pokiza, toza va ozoda, yurish va turishda namuna bo'lishini talab etib, "agar tarbiyachi o'rnak bo'lmasa, aytgan gapiga o'zi rioya qilmasa, uning bergan tarbiyasi samarasizdir", deb uqtiradi.

Xullas, alloma o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, o'quv-tarbiya jarayonini tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy imkoniyat darajalarini hisobga olgan holda amalga oshirish me'yorlari haqida o'z ilmiy xulosalarini bayon qiladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Abu Ali ibn Sino (980-1037) ning arab qomusiy asari "Tib qonunlari"da insonning tarbiyasi, bu tarbiyaning turli shakllari, vazifalari va maqsadlarini yoritib, inson yosh jihatidan o'sib borishi bilan unga ta'lim-tarbiya berish vazifasi ham o'zgarib borishini ta'kidlaydi.

Uning fikricha, yosh bolalarni tug'ilgandan boshlab tarbiyalash uchun avvalo axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan, irodali, dono, g'amxo'r va dinga ishongan o'qituvchi va tarbiyachi tanlash lozimligini, uning sog'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo'la oladigan tarbiyachi bo'lishi kerakligini uqtiradi [20].

Ibn Sino bolalarni bitta-bittadan o'qitishdan ko'ra jamoada ta'lim-tarbiya berish, o'qituvchi bilan o'quvchining munosabatini o'rnatishni taklif etadi. Uning fikricha, jamoada o'qitilganda ularning ilmga intiluvchanligi kuchayadi, tengdoshlaridan orqada qolishga g'ururi yo'l qo'ymaydi. O'quvchilar o'rtasida fikr almashish, do'stlik munosabatlari tiklanib, o'z huquq va vazifalari haqida mulohaza yuritish qoidalarini shakllantirishga harakat kuchayadi. Undan tashqari jamoa bolaning nutqi o'sishida, fikrining charxlanishida, xotirasining mustahkamlanishida muhim o'rin kasb etadi. Ana shunday qoidalarga asoslangan o'quv-tarbiya jarayonigina yoshlarning aqliy va axloqiy kamolotini ta'minlaydi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Ibn Sinoning ta'kidlashicha, o'qituvchi o'quvchilarga ta'lim berishga kirishishdan avval, bolaning xulq-atvorini o'rganishi va bilimlarini tekshirib ko'rishini, uni nimaga e'tibor berishini kuzatib, so'ngra unga hunar yoki ilm turini tavsiya qilishi maqsadga muvofiqdir.

Alloma Abu Ali Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya borasida ilmiy-falsafiy ta'limoti nafaqat Markaziy Osiyoda, xatto G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ham ilg'or fikrlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyoti, 1993.- 224 b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Tarvixlar (“Javohirotnomasi”dan “Mineralogiya”) – Toshkent: Meros, 1991.- 13 b.
3. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 3 jildlik saylanma. – Toshkent: Fan, 1992.- 453 b.
4. Uchkunovna, Raxmanova Dilfuza. "Buyuk ajdodlarimiz ta'limotida sog'lom avlodni tarbiyalash." *Pedagog* 1.2 (2022): 186-190.

### **PSIXOLOGIYANI O'RTA ASRLARDA RIVOJLANISHI**

#### **Raxmanova Dilfuza Uchkunovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

([dilfuza.raxmanova.89@mail.ru](mailto:dilfuza.raxmanova.89@mail.ru))

Abdusamatova Nurixon Abduvohid qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi

3-bosqich talabasi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlari haqidagi fikrlari so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Abu Ali ibn Sino, psixologiya, sharq, O'rta Osiyo, tarix, ruhiy quvvatlar.

**Kirish (Introduction).** Sharqda psixologik qarashlarning paydo bo'lishida buyuk sharq mutafakkirlarining roli kattadir. Ular orasida Al-Xorazmiy (783-850), Al-Farobiy (873-950), Abu Rayxon Beruniy (973-1048), Abu-Ali Ibn Sino (980-1037), Mirzo Ulug'bek (1324-1409) kabilar o'zlarining inson psixikasi va yosh avlodni tarbiyalashga doir boy fikrlari va qarashlarini me'ros sifatida qoldirganlar.

O'rta asr psixologik qarashlarida O'rta Osiyolik mashhur mutafakkirlar Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning psixologiya sohasidagi fikrlari muhim ahamiyatga egadir. O'rta Osiyo xalqlari boshqa dunyoviy fanlar qatori psixologiya fani sohasida ham boy merosga ega. Xalqimizning buyuk namoyandalari, butun dunyoda nomi tarqalgan mutafakkirlar, olimlar va shoirlar inson ruhiy jarayonlarini talqin etishda o'z zamonasi uchun ilg'or fikrlarni olg'a surdilar. Bu mutafakkirlardan Forobiy, Ibn Sino va Beruniylarning psixologiya sohasidagi fikrlari, milliy psixologiya tarixi va hozirgi mustaqillik davri uchun g'oyat katta ahamiyatga egadir.

IX - XI asrlarda ijod etgan mutafakkirlarimiz hayoti O'rta Osiyo, umuman yaqin va O'rta Sharqda iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar kuchaygan, har xil ijtimoiy tabaqalar o'rtasida kurashlar avjiga chiqqan, turli-tuman g'oyaviy oqimlar orasida keskin kurashlar boshlangan bir davrga to'g'ri keldi. Shu davrda ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi kabi inson ruhini talqin qilish borasida ham turli yo'nalishlar va oqimlar o'rtasida keskin kurash ketar edi. O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy ijodi materialistik yo'nalishni yanada rivojlantirish, mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etdi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** O'z davrining zabardast olimi Ibn Sino (980-1057) ilmiy merosida psixologiya masalalariga ham katta e'tibor berganligini ko'ramiz. Mutafakkirlar orasida ayniqsa Ibn Sinoning mantiq, metafizika, tabiiy fanlar haqidagi fikrlari o'sha davr ilmiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U maxsus psixologik muammolar bilan shug'ullangan olimlardan biridir. Uning rux haqida, asab tizimi, miyaning funksional tuzilishi haqidagi fikrlari hozirgi zamon psixologiyasini, psixikaning mexanizmlarini o'rganishda ahamiyatlidir. Uning temperament tiplari to'g'risidagi ta'limoti psixologiyaga qoshgan eng katta hissasidir. Ibn Sino birinchi bo'lib psixoterapevtik usullarni qo'llagan olimdir. U o'zidan ilgari o'tgan olimlar - Forobiy, al-Qonun, ar-Roziy va boshqalarning psixologiya sohasidagi ta'limotlarini mukammal o'rgandi va hattoki, maxsus asarlar ham yozib qoldirdi. Jumladan, “Jon to'g'risida”, “Tushni yo'yish kitobi”, bulardan tashqari, “Tib qonunlari”, “Shifo beruvchi kitob”, “Donishnoma” va boshqa asarlarida psixologiyaga doir ko'pgina muammolarni hal qilishga harakat etgan. Ibn Sinoning psixologiya masalalari bilan shug'ullanishiga

## MUNDARIJA

KIRISH.....	4-5
<b>1-SHO‘BA. ABU RAYHON BERUNIY HAYOTI VA IJODIY MEROSI</b>	
BERUNIYNING “QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR” ASARI O‘RGANILISHIGA DOIR, Bahrom Abduhalimov.....	6-8
ABU RAYHON BERUNIYNING TABIIY FANLAR RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI	

Abdullayev Ikram Iskandarovich, Ruzmetov Dilshod Ruzimboyevich.....	8-11
ABU RAYHON BERUNIY VA “DORUL HIKMA VAL MAORIF” – XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI ALLOMALARINING JAHON ILM-FANI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI Nodira Mustafoyeva, Raufjon Mahmudov .....	12-17
ВКЛАД БИРУНИ И ИБН СИНА В ФОРМИРОВАНИИ МЕСТНОЙ АРХИТЕКТУРЫ.. B.S.Рахмонов.....	17-21
SAYYORAMIZ QIYOFASINI KASHF ETGAN DAHO Utepova Genjexan Baltabaevna, A.Uzaqbaev Yuldasheva .....	22-25
BERUNIY ASARLARIDA QADIMGI ERON VA FORSLAR MADANIYATI. Kuranbayeva Umida Sultannazarovna .....	25-30
BUYUK ALLOMALARIMIZ ABU RAYXON BERUNIY VA IBN SINOLARNING SIVILIZATSIYA TARIXIDAGI ROLI Xalimbetov Yusup Masharipovich, Yuldashev Soatboy Jiyanboyevich, Ibragimova Elnara Farmanovna.....	31-34
BERUNIYNING HINDISTON ASARI – TARIXIY ETNOGRAFIK ASAR SIFATIDA Tadjiyeva Feruza Jumabayevna.....	35-36
HISTORICAL CONDITIONS OF THE FORMATION OF BERUNI’S SCIENTIFIC AND PHILOSOPHICAL VIEWS. Yuldasheva Saodat Mamasakhatovna, Mukhammadova Zebokhon Zakhid.....	37-39
INTERPRETATION OF PSYCHODIAGNOSTIC PROGNOSIS IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ABU RAYHAN BERUNI Yuldasheva Saodat Mamasakhatovna, .....	39-40
ABU RAYHON BERUNIY TAFAKKURLARINI O‘RGANISH (BERUNIY TAVALLUDINING 1045 YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN QOBUL XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI HAQIDA), Azizullah Arol. O‘lmasbek Xo‘jayev.....	41-48
ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA QO‘LLANILGAN METODOLOGIYANING MUHIM XUSUSIYATLARI. Mamadaminov Muhridin.....	48-52
FOLKLORSHUNOSLIK VA ETNOGRAFIYADA XALFACHILIK AN‘ANALARINI QIYOSIY O‘RGANISH MASALALARI Guzal Razzakova.....	52-54
ADABIY PARALLELNING JANRIY XUSUSIYATLARI. Teshayeva Gulnoza Jamshidovna .....	55-58
RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL IDEAS OF ABU RAYHAN BERUNI. Soatboyeva Sevinchoy.....	58-59
ABU RAYHON BERUNIYNING ILMIY MEROSLARI. Bozorova Aziza, Sayfullayeva Gulhayo.....	59-60
BERUNIYNING TABIIY-ILMIY QARASHLARI G‘ARB OLIMLARI TALQINIDA Otajonov G‘ayratjon Umarovich .....	60-62
ULUG‘ BOBOKALONIMIZ ABU RAYHON BERUNIYNING ILMIY MEROSINI O‘RGANISH Mambetnazarov Miraziz .....	62-64
ABU RAYHON BERUNIY HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI. Ro‘zmetov Shuhratbek Quronboyevich .....	64-66
ABU RAYHON BERUNIYNING "QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA. Rustamova Munisa Umid qizi .....	66-67
<b>2-SHO‘BA. ABU RAYHON BERUNIY YASHAGAN DAVR ADABIY MUHITI</b>	
ABU RAYHON BERUNIYNING IJTIMOYIY-SIYOSIY QARASHLARI. Otamuratov Sadulla Otamuradovich .....	67-69
ABU RAYXON BERUNIYNING MA’NAVIY-AXLOQIY G‘OYALARI. Raximova M.Z.....	69-71
O‘ZBEKISTON RANG TASVIRIDA BERUNIY OBRAZINI YARATISH TAJRIBALARI Imamov Azizxon Avazxanovich.....	71-75
ABU RAYHON BERUNIYNING PEDAGOGIK TA‘LIMOTIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI. Akram O‘tayev.....	76-77



ABU RAYHON BERUNIY VA ABU ALI IBN SINONING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI Zokirov Kozimjon, Xusanov Alijon Karimovich, Sobirov Ozodbek Tojimatovich, Zokirov Odiljon Kozimjonovich, .....	77-81
DAXLDORLIK TUYG'USINING TARIXIY-FALSAFIY ILDIZLARI. Dushayev Akbar Joniqulovich .....	81-84
ABU RAYHON BERUNIY IJODIDA ANIQ VA TABIIY FANLAR. Abdullayev Botirjon .....	84-88
БЕРУНИ УЧЁНЫЙ ГЕНИАЛЬНЫЙ МЫСЛИТЕЛЬ СРЕДНЕВЕКОВЬЯ. Rajabova Dinora Shavkatovna.....	88-91
ABU RAYHON BERUNIYNING "MINERALOGIYA" ASARIDA QAYD ETILGAN BA'ZI KITOBLAR XUSUSIDA. Anvar Allambergenov.....	91-93
ABU RAYHON BERUNIYNING INSON MOHIYATI HUSUSIDAGI QARASHLARI. Abdullayev M.S. ....	94-95
BERUNIYNING "IBN SINO BILAN SAVOL-JAVOBI" DA LINZALAR MASALASI. Avezmurotov Ollayor, Avezmurotova Zebo Alloyarovna .....	95-99
ABU RAYHON BERUNIY ILMIY MEROSI - BEBAHO BOYLIK, Raxmanova Shirin Qutlimuratovna .....	99-101
OTA-ONANING FARZAND TARBIYASIDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. TURAQULOV BO'RI NORBOYEVICH, KALDIBAYEVA FARIZA MUHAMAD QIZI, Rayimboyeva Kumushoy O'ktamboy qizi.....	101-103
RAYHON BERUNIY ASARLARIDA XORAZM TARIXI, Erkayeva Sevinchoy Egamberganovna.....	104-105
<b>3-SHO'BA. ABU RAYHON BERUNIYNING ILM-FAN, MADANIYAT VA SAN'ATGA QO'SHGAN ULUSHI</b>	
BERUNIY VA IBN SINO MEROSLARINING JAHON FANI RIVOJIGA TA'SIRI, Karimov Baxtiyor Raxmanovich.....	106-109
ABU RAYHON BERUNIYNING "HINDISTON" ASARIDA GNOSEOLOGIK MUAMMOLAR TALQINI, J. Miraxmedov.....	109-110
ABU RAYHON BERUNIYNING TABIIY-ILMIY QARASHLARI, Shamsiddinov Burxon Jakbarovich.....	111-114
MOVAROUNNAHRDA ILM-FANNING RIVOSHLANISHIDA IBN SINO VA BERUNIYNING O'RNI MASALASIGA DOIR, Qambarov Abdumutal Axadjonovich.....	115-117
BERUNIYNING "TAFHIM" ASARINI TARIXIY AHAMIYATI, Azizqulov Akram Abduraxmonovich.....	118-119
ABU RAYHON BERUNIYNING MA'NAVIY VA MADANIY MEROSI, Egamberganova Matluba Jobborgonovna.....	119-120
ABU RAYHON BERUNIY IJODIDAGI ASOSIY ILMIY YO'NALISHLAR, Abdullayev Botirjon.....	121-125
XORAZMSHOH MA'MUNIYLAR DAVRI IJTIMOY MUHITIDA ABU RAYHON BERUNIYNING O'RNI VA ILMIY FAOLIYATI, Matyakubov Shonazar Sobirovich....	125-127
ABU RAYHON BERUNIYNING TARIXIY TAFAKKURI VA TARIX FANI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI, Aminov Xurmatbek Baxram o'g'li.....	128-131
ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA KASHMIR TEVARAGIDAGI TURKIY ELATLARGA TEGISHLI BILGILAR, G'aybulla Boboyorov.....	131-134
ABU RAYHON BERUNIYNING O'RTA ASRLAR ILM-FANI, MADANIYATI VA SAN'ATINING RAVNAQ TOPISHIDAGI XISSASI, Najmetdinova Mavluda Mamasodiqovna.....	134-136
UYG'ONISH DAVRI – XORAZM SHAHARLARI, Abdirimov R., Sadullayev B.P., Raximov Sh.B.....	137-142
ABU RAYHON BERUNIYNING ILM-FAN, MADANIYAT VA SAN'ATGA QO'SHGAN ULUSHI, Muhammad Qozim Amini Karim o'g'li, O'lmasbek Xo'jayev.....	143-146
BERUNIYNING TABIIY-ILMIY QARASHLARI G'ARB OLIMLARI TALQINIDA, Otajonov G'ayratjon Umarovich.....	146-148

ABU RAYHON BERUNIYUNING ILM-FAN VA MADANIYATGA QO‘SHGAN HISSASI HAQIDA QISQACHA MULOHAZA, Saparbayev Atabek Sharipboyevich, Shahanov Bobur Choriyevich.....	148-150
ABU RAYXON BERUNIY ASARLARIDA PSIXOLOGIK G‘OYALAR TALQINI, Radjabova Zuxra Mirzotilloevna.....	151-152
ABU RAYHON BERUNIYNING IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARGA QO‘SHGAN HISSASI, Nurullayev Farhod Kadamovich.....	152-154
BERUNIYNING AQL MASH‘ALI – KOLUMB KASHFIYOTINING SIRI, Umid Bekmuhammad.....	155-158
ABU ALI IBN SINONING TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA FANI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI, Qosimjanova Nilufar Akmaljon qizi.....	159-160
ASTRONOMIK VA MATEMATIK TRAKTAT (TARIXIY TAXLIL), Abdullayeva Intizor Baxromovna.....	160-162
ISAJON SULTONNING “ABU RAYHON BERUNIY” ROMANIDA TARIXIYLIK TAMOYILLARI, Babayeva Sevara Baxtiyor qizi.....	163-165
ABU RAYHON BERUNIYNING IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR SOHASIGA QO‘SHGAN HISSASI, Raxmatjon Saotboyev.....	165-166
ABU RAYXON BERUNIYNING ILM-FAN MA‘DANIYAT VA SAN‘ATGA QO‘SHGAN ULUSHI, Turdimuhammadova Sarvinoz.....	167-168
NIZOMIY ARUZIY SAMARQANDIY ABU RAYHON BERUNIYNING TABIATSHUNOSLIK ILMLARI HAQIDA, Usmanov Jaxongir Bazarovich.....	168-169
<b>4-SHO‘BA. ABU ALI IBN SINONING TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA FANI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI</b>	
ABU ALI IBN SINONING TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA FANIGA QO‘SHGAN HISSASI, Rashidov Shamsiddin Sharofovich.....	169-170
ABU ALI IBN SINONING TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA FANI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI, Davronov Bahodirjon Abdirahim o‘g‘li.....	170-174
THE POSITIVE EFFECT OF IBN SINA’S WORKS IN THE DEVELOPMENT OF WORLD MEDICINE, Farangiz Mamarizayeva Zohidjon qizi.....	174-175
PRAGMATIZM INSON ICHKI POTENSIALINI VA IRODASINI RO‘YOBGA CHIQRISHNING ASOSIY OMILLARI, Bekchanov Zufarbek Madrimovich.....	175-177
BERUNIY VA IBN SINO YOZISHMALARIDA ARISTOTELNING ONTOLOGIK TA‘LIMOTI TALQINI, Ibragimov B.T.....	177-179
ABU ALI IBN SINONING ANATOMIYA FANI RIVOJIGA QO‘SHGAN XISSASI, Boboqulova Nodira Nurmat qizi.....	179-181
ABU ALI IBN SINONING TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA FANI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI, Normo‘minov H.SH., Maxkamov B.G‘.....	182
РОЛЬ АБУ АЛИ ИБН СИНО В СОВРЕМЕННОЙ ФАРМАЦЕВТИКЕ, Ergasheva Moxinaxon Nuriddin qizi.....	183-184
ABU ALI IBN SINONING TABIIY-ILMIY VA GNOSEOLOGIK QARASHLARIDA UYG‘UNLIK G‘OYALARI, Bekpo‘latov Ulug‘bek Rahmatulla o‘g‘li.....	185-187
ABU ALI IBN SINO INSON AXLOQIY VA TIBBIY TARBIYASI XUSUSIDA, Shamsiddinov Burxon Jakbarovich.....	188-190
QORA SMORODINA QUYUQ EKSTAKTI VA BARGI TARKIBIDAGI ASKORBIN KISLOTA VA ERKIN ORGANIK KISLOTALARNI ANIQLASH, Ag‘loxodjaeva Shaxnozaxon Muxammad qizi, Saidvaliyev Abdudjalil Qo‘chqorovich.....	191-194
DETERMINATION OF ASCORBIC ACID AND FREE ORGANIC ACIDS IN SOFT EXTRACT AND BLACKCURRANT LEAVES, Aglokhodjayeva Shakhnozaxon Muxammad qizi, Saidvaliyev Abdudjalil Kuchkarovich.....	194-195
ABU ALI IBN SINONING XALQ TABOBATIGA QO‘SHGAN HISSASI, Jalilova D.M.....	196-197
THE POSITIVE EFFECT OF IBN SINA’S WORKS IN THE DEVELOPMENT OF WORLD MEDICINE, Farangiz Mamarizayeva Zohidjon qizi.....	198-199